



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA-MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI XORIJIY TILLAR FAKULTETI

NEMIS TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI 303- GURUH TALABASI  
NO'MONOVA GULNOZANING TIL TAYYORGARLIGI KURSI  
FANIDAN BAJARGAN

# REFERATI

**Mavzu:** Nemis tilida tovushlarning nutq jarayonida  
o'zgarishi.

**Ilmiy rahbar:**

N.A.Karimova

Andijon- 2015

**Mavzu: Nemis tilida tovushlarning nutq jarayonida o'zgarishi.**

**Reja:**

**I. Kirish.**

1. Mavzuning dolzarbligi.
2. Mavzuning nazariy ahamiyati.

**II. Asosiy qism:**

1. Nemis tilida so'zning fonetik xususiyatlari
2. Nemis tilida so'zning morfologik xususiyatlari
3. Nemis tilida so'zning semantik xususiyatlari
4. Motivatsiya masalasi

**III. Huloosa**

## Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalaSh, jamiyatda o'zining munosib o'rniga ega bo'ladigan, ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan yuksak bo'lgan yoSh avlodni voyaga yetkazishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Yurtimizda izchillik bilan o'tkazilayotgan islohatlarning pirovard maqsadi, vatanimizda yaShayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun har jihatdan mukammal rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalaSh, ta'lim va maorifni yuksaltirish davlatimizni eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni dunyoqaraShi zamonaviy bilimlar, yuksak ma'naviyat va axloqiy qadriyatlar asosida shakllanmog'i zarur. Yoshlarning hayotda o'z yo'lini topib olishlarida hamda mustaqil to'g'ri fikrlaydigan yetuk Shaxs, zamonaviy kadr bo'lib yetishlari uchun jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va aqlan rivojlangan bo'lishlari talab etiladi.

Tilshunoslik fanining asosiy problemalaridan biri tilning ichki qurilishini, uning ichki mexanizmining ishlaSh printsiplarini o'rganishdir.<sup>1</sup> Til o'z tabiatiga ko'ra murakkab, ko'p aspektli hodisa bo'lib, uni har tomonlama o'rganish mumkin.

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, til kishilik jamiyatida bajaradigan funktsiyasiga ko'ra asosiy aloqa quroli, tafakkur vositasi; o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Ichki qurilish nuqtai nazaridan til ma'lum miqdordagi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan til birliklarining yig'indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan taShkil topgan murakkab sistemadir. Shuning uchun ham til ichki qurilishini o'rganishda sistema va struktura tushunchalari keng qo'llaniladi.

Sistema tushunchasi tilda mavjud bo'lgan imkoniyatlarni ham ichiga oladi. Bu jihatdan til sistemasi ochiq sistemadir. Boshqacha qilib aytganda, til sistemasining

---

<sup>1</sup> Tilning rivojlaniishi, uning ichki qurilishi ka bi kator masalalar И. А. Бодуэн де Куртенэ, Н. В. Крушевский, Ф. Ф. Фортунатов, В. А. Богородицкий, А. А. Потебня, А. А. Шахматов, С. П. Обнорский, В. В. Виноградов, А. М. Пешковский, Л. В. Щерба ва бошка тилшуносларнинг асарларида чуқур ёритилган. Бу асарлар жаҳон тилшунослигига қўшилган катта ҳиссадир.

imkoniyatlari cheksizdir. Shunday bo'lmaganda edi, til taraqqiy eta olmas, kishilarning fikrlaSh, o'zaro so'zlashishga bo'lgan to'xtovsiz ehtiyojlarini qondira olmagan bo'lar edi.

Darhaqiqat, til kishilar orasida eng asosiy aloqa quroli va tafakkur vositasi sifatida har doim rivojlanib turadigan dinamik hodisadir.

Til jamiyat taraqqiyotining hamma etaplarida kishilarning unga bo'lgan ehtiyojlarini to'la-to'kis qondiradi va jamiyat taraqqiyoti bilan til ham har doim rivojlanib, o'zgarib turadi. Ammo tilning o'zgarishi, rivojlanishi, aloqa vositasi sifatida o'z funksiyasini bajarishi o'z holicha yuz bermaydi, aksincha, ma'lum qonun-qoidalar asosida amalga oshadi.

## **1. NEMIS TILIDA SO'ZNING FONETIK XUSUSIYATLARI**

Ma'lumki, kishilar tilning ayrim birliklari (fonemalar, ayrim so'zlar, grammatik vositalar) yordamida fikr almashmaydilar, aksincha, til butuv bir sistema sifatidagina mavjuddir. Ularning birliklari: fonemalar, morfemalar, so'zlar faqatgina yaxlit til sistemasining ichida o'z funksiyalarini bajaradilar. Demak, til o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan va bir-birini taqozo etadigan material birliklarining yig'indisidan tashkil topgan, o'ziga xos strukturaga ega bo'lgan murakkab sistemadir. Til sistemasini tashkil etgan til birliklarining o'zaro munosabati, bir-biri bilan bog'lanish qonun-qoidalari tilning strukturasi taShkil etadi.

**Har bir konkret tilning negizini tashkil etgan tovushlar<sup>1</sup> sistemasi, lug'at sostavi va grammatik qurilishi til sistemasini tashkil etadigan asosiy qismlardan iboratdir.** Til sistemasini taShkil etgan elementlar (tovushlar, so'zlar va grammatik formalar) har bir tilning qonun va qoidalari asosida birikib, butun bir til sistemasini taShkil etadi.

Til sistemasini tashkil etgan elementlarning o'zaro munosabati va bir-biri bilan bog'lanish qonuniyatlari nihoyatda murakkab va ko'p qirralidir. Garchi til yaxlit sistema bo'lsa-da, bu sistema ichida o'ziga xos mustaqillikka ega bo'lgan, til sistemasining tarkibiy qismlari bo'lgan yaruslar mavjuddir. Har bir yarusning o'z birliklari va kategoriyalari bo'lib, ular bir-biridan farqlanib turadi.

Til sistemasini taShkil etgan asosiy yaruslar quyidagilar:

1. Fonetik-fonologik yarus.
2. Lug'at yarusi.
3. Grammatik yarus.

Fonetik-fonologik yarus. Tilning tovuSh sistemasi nutq tovuShlaridan taShkil topadi. Fikr almashish uchun foydalaniladigan so'zlar va gaplar, albatta, tovuSh materiyasida o'z ifodasini topadp. Tilning tovuSh sistemasini turli tomondan o'rgapish mumkin, chunki nutq tovuShlari o'z tabiatiga va til sistemasida bajaradigan funktsiyasiga ko'ra murakkab hodisadir.

Inson nutqining tovuShlari fizik xususiyatlariga ko'ra tabiatda paydo bo'ladigan tovuShlarning bir turidir. Shuninguchun tovuShlar sistemasinn o'rganishda akustik nuqtai nazardan ham yondashiladi. Ammo inson foydalanadigan tovuShlar, tabiatdagi boShqa tovuShlardan farqli o'laroq, kishining nerv sistemasi tomonidan boShqarilib turadigan nutq organlari mahsulidir. Shuning uchun tovushlar fiziologik (biologik) nuqtai nazardan ham o'rganiladi. Nihoyat, tovuShlarni til sistemasida bajaradigan funktsiyasi nuqtai nazardan ham o'rganish mumkin, Chunki tovushlar til sistemasida o'z hollaricha mavjud bo'lmaydi. Ular so'zlarni yasashda va fikr almaShish protsessini ta'minlab berishda muhim rol o'ynaydi. Tovushlarning akustik (fizik) va fiziologik (biologik) xususiyatlarini **fonetika** fani o'rganadi. Tovushlarning til sistemasida bajaradigan funktsiyalarini esa **fonologiya** o'rganadi.

Ob'ektiv borliqdagi mavjud narsa va hodisalar har xil guruh va turlarga ajratilganidek, nutq tovuShlari ham artikulyatsion-akustik xususiyatlariga ko'ra bir neCha turlarga bo'lnadi.

Nutq tovushlari ovoz va shovqinning ishtirok etish darajasiga ko'ra ikki asosiy guruhga — unli va undoshlarga ajratiladi. Bularning miqdori turli tillarda turlichadir. Masalan, rus tilida undoshlar 43, unli 6; frantsuz tilida 21—13, arman tilida 30—6 ta, gruzin tilida 28—5, eston tilida 16—9, Chukot tilida 14 — 6 ta. Artikulyatsion — akustik va eShitib his etilishi hamda tildagi funktsional xizmati jihatidan unli va undosh tovuShlar o'rtasida katta farq bor.

Artikulyatsion jihatdan unli tovuShlar talaffuzida o'pkadan Chiqib kelayotgan havo heCh qanday to'siqqa uChramasdan o'tadi, undoShlar talaffuzida esa havo oqimi biror to'siqqa duCh keladi. Akustik xususiyatlarga ko'ra unililar talaffuzida havo oqimi kuChsiz tebranadi, undoShlar esa unililarga qaraganda kuChli tebranadi va Shovqin yordamida hosil bo'ladi. EShitib his etilishi jihatdan ham undoShlar kuChli Shovqini bilan unililardan farq qiladi. Unililar esa muzika ohangiga jo'r bo'la oluvChi mayin ohangga egadir. Jahon tillarining deyarli barChasida undoSh tovuShlar unililardan ko'p va Shu tufayli ularning funktsional xizmati kattadir.

Har bir tildagi so'zlar o'ziga xos fonetik, morfologik hamda semantik xususiyatlarga ega bo'lgani kabi, olmon tili leksik sisitemasining ham o'ziga xos tomonlari mavjud.

Professor Umarxo'jaevning yozishicha, nemis tilida so'zlar markazlashgan, morfologik bog'langan urg'uga ega.

- a) bosh urg'u – die Hauptbetonung
- b) ikkinchi darajali urg'u – die Nebenbetonung
- v) kuchli urg'u – die starke Betonung
- g) kuchsiz urg'u – die schwache Betonung

Masalan: 'Arbeit, 'arbeits'los, 'stock'finster, 'Eishockeynational'mannschaft.

Olmon tilida ba'zi so'zlar borki, ularda urg'u negizga bog'langan emas, balki so'zlarga ajraluvChi va ajralmaydigan prefikslar, ba'zi suffikslar qo'Shilishi bilan urg'uning o'zni o'zgaradi.

Prefiks va suffikslar, odatda affiks deb yuritiladi. So'zning o'zagi oldida keladigan morfemalar — p r e f i k s ( o l d q o ' S h i m C h a ), o'zakdan keyin qo'llanadigan morfemalar — s u f f i k s deb ataladi.

Prefikslar ikki turga bo'linadi: 1) a j r a l a d i g a n p r e f i k s l a r va 2) a j r a l m a y d i g a n p r e f i k s l a r .

Ajralmaydigan prefikslarga (die untrennbaren Vorsilben) quyidagilar kiradi: **be-**, **ge-**, **er-**, **ver-**, **zer-**, **ent-**, **emp-**, **miß-** (bekommen, gelingen, erzählen, verstehen, zerstdren, empfangen, entspreChen, mißlingen). Bu

prefikslarning **ge-** va **emp-** dan boʻshqalari hozirgi olmon tilida mahsuldor prefikslardan hisoblanadi. **Ajralmaydigan prefikslar urg'uga ega emas:** be'sChreiben.

Ajraladigan prefikslarga (die trennbaren Vorsilben) quyidagilar kiradi: **ab-, an-, auf-, aus-, bei-, ein-, mit-, naCh-, vor-**, (ablegen, anziehen, aufstehen, ausgehen, beiwohnen, einsteigen, mitbringen, naChdenken, vorlesen, zu maChen). **Ajraladigan prefikslar urg'uga ega bo'ladi.**

**DurCh-, über-, unter-, um-, wider-** prefikslari ham ajraladigan, ham ajralmaydigan xarakterga ega. Qiyoslang: 'übersetzen — qirg'oqdan qirg'oqqa o'tkazmoq; über'setzen — tarjima qilmoq.

Bu old qo'ShimChalar urg'u olgandagina fe'ldan ajraladi, urg'u almashganda ajralmaydi.

#### 1.2. Jarangli undoShlar so'zning oxirida jarangsizlaShadi.

Masalan: Tag [ta:k], und [unt], Kind [kint]

O'zbek tilida ham so'z oxirida jarangli undoShlar jarangsizlaShadi.

Masalan: kitob [kitop], qand [kant]

Turli holatlarda tovuShlarning talaffuzida har xil o'zgarishlar yuz beradi. N.S. Trubetskoyning ko'rsatishicha, «...amaliy jihatdan aynan bir tovuShni bir pozitsiyada ham bir neCha marta aniq va bir turda talaffuz qilish mumkin emas».<sup>2</sup>

1.3. Unlilar so'z boShida kuChli talaffuz qilinadi (der feste Einsatz, "der Knacklaut" qoidasiga ko'ra)

Masalan: Antwort, □Uhr, □Ofen. □ Er steht an der Ecke.

1.4. Urg'usiz bo'g'inda unlilar reduksiyaga uchraydi, genommen [gə 'nɔ mmə n] tarzida talaffuz qilinadi.

## 2 Nemis tilida so'zning morfologik xususiyatlari

Tilshunoslikka bag'ishlangan adabiyotlarda so'zning material strukturasi haqida quyidagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin.

Har qanday so'z material (tovush) va ma'no tomonlarining yig'indisidan iborat. Oldingi sahifalarda so'zning ma'nosi haqida fikr yuritilgan edi. Endi so'zning

---

<sup>2</sup> Н.С. Трубецкой. Основы фонологии, М., 1960. стр. 48-49

material strukturasi bayon qilamiz. So'zning material strukturasi aniqlamay turib, so'z yasaSh va grammatikaning ko'p masalalarini o'rganib bo'lmaydi.

Keyingi davrlargacha so'zning material strukturasi morfologiyaga bog'lab, «So'z tarkibi» bo'limida izohlanib kelindi. Hozirgi tilshunoslikda «So'z yasaSh» alohida mustaqil bo'lim sifatida o'rganilmoqda. Umuman, so'zning material strukturasi faqat morfologiyaga bog'laSh to'g'ri xulosalarga olib kelavermaydi.

So'zning material strukturasi deganda uning eng kichik, bo'laklarga bo'linmaydigan ma'noli qismlarga ajratilishi ko'zda tutiladi. Bular tilshunoslikda MORFEMA deb yuritiladi. Demak, morfema tilning eng kichik, bo'laklarga bo'linmaydigan ma'noli qismidir. Masalan, o'zbek tilidagi *ishchi* so'zi ikkita morfemadan taShkil topgan, chunki bu so'zning tarkibida ikkita eng kichik ma'no anglatuvchi birlik bor, ya'ni *ish* va *-chi*. *Ish* va *-chi* elementlari o'z navbatida yana ham kichikroq ma'noli bo'laklarga bo'linmaydi. Biz *ish* so'zini **I** va **Sh** singari bo'laklarga bo'lib taShlaShimiz mumkin, lekin ular bunday ko'rinishda hech qanday ma'no anglatmaydi. *Ishchilarimizdan* degan so'zda esa beShita eng kichik ma'no anglatuvchi bo'lak bor: *ish-Chi-lar-imiz-dan*, *ish* — so'zning o'zagi, **-CHI** — kasbni ko'rsatuvchi element, **-lar** — ko'plik ma'nosini anglatuvchi, **-IMIZ I** Shaxsning ko'pligini va **-DAN** — Chiqish ma'nosini anglatuvchi elementlardir. Shunga o'xshaSh misollarni boShqa tillardan ham keltirish mumkin.

Nemis tilida *Arbeiterinnen* so'zi to'rtta eng kichik ma'no anglatuvchi birliklardan taShkil topgan, ya'ni *Arbeit (ish)*, *-er (-Chi)*, *-in* (jinsni ko'rsatuvchi element), *-en (-lar)*.

Quyida aynan nemis tilida morfemalarga bag'ishlangan adabiyotlarda berilgan ma'lumotlar bu masalaga yana ham oydinlik kiritadi.

So'zning morfologik strukturasi *morfemalardan* taShkil topadi.

**M o r f e m a** (grekcha *morphe* — «Shakl») so'zning bo'linmas, eng kichik ma'no anglatadigan qismidir. U so'z tuzilishida dastlabki morfologik elementdir.

So'zning morfologik strukturasi hosil etuvchi morfemalar asosiy xususiyatiga ko'ra ikki turga: o'zak morfema va affiksial morfemaga bo'linadi:

**O'zak** (Wurzel). O'zak har ikki tilda so'zning asosiy leksik ma'nosini ifoda etadi. Uning sostavida grammatik ma'noni ifoda etadigan boShqa elementlar, Shuningdek, so'z yasovchi morfemalar bo'lmaydi. Masalan, nemis tilida *schön, die Schönheit, ver-schön-ern, be-schön-ig-en, die Ver-schön-erung, die Be-schön-ig-ung*. so'zlarining hammasi uchun *schön* o'zak hisoblanadi.

O'zbek tilida esa *ishChi, Shichilarimiz, iixla, Shichan* so'zlarining o'zagi *ish* dir. Yuqoridagi misollar Shuni ko'rsatadiki, nemis va o'zbek tillarida affikslarning o'zakka qo'Shilish xarakteri o'zaro farts qiladi.

**Affikslar** (Affixe). Prefiks va suffikslar, odatda affiks deb yuritiladi. So'zning o'zagi oldida keladigan morfemalar — prefiks (old q o ' S h i m C h a ), o'zakdan keyin qo'llanadigan morfemalar — suffiks deb ataladi. Affikslar uChga bo'linadi: suz yasovChi, forma yasovChi va so'z o'zgartuvChi. Affikslarning bu turlari har ikki tilda mavjud.

**S o' z y a s o v c h i a f f i k s l a r** (Wortbildende Affixe). O'zakka qo'Shilib, yangi so'z hosil qiluvchi affikslar s o' z y a s o v c h i a f f i k s l a r deyiladi. Masalan, *frei-die Freiheit - die Be-frei-ung kolxozchi, aqlli, ishla, boShla* va b.

**F o r m a y a s o v c h i a f f i k s l a r** (Formbildende Affixe). O'zak-negizlarga qo'Shilib turli grammatik ma'no ifodalovchi affikslar f o r m a y a s o v c h i a f f i k s l a r deyiladi. Bunga otlardagi ko'plik, sifatlardagi daraja, fe'llardagi zamon formalarini yasovchi affikslar kiradi: *ge-les-en, ge-lern-t; die Jahr-e, die Straß-en, die BüCh-er; stark-stärk-er — am stärk-st-en; fragen—fragte; tog'lar, kuChliroq*.

**S o' z o' z g a r t u v c h i a f f i k s l a r** (Flexionsaffixe). So'zning o'zaro bog'lanishini ko'rsatuvChi va Shu aloqaga xos ma'nolarni ifoda etuvChi affikslar f o r m a o' z g a r t u v c h i (s o' z o' z g a r t u v c h i) affikslar deyiladi. Bularga otlardagi kelishik (o'zbek tilida egalik qo'Shimchasi ham), fe'llardagi Shaxs-son affikslari va Shu kabilar kiradi: *die Flügel des Flug-zeug-es; ich arbeit-e; wir arbeit-en; ishchiga; (men) o'qiyman, (biz) o'qiyimiz*

O'zbek tilida, nemis tilidagidek, o'zak oldidan qo'llanadigan morfemalar — prefikslar yo'q. Bu esa turk tillari sistema- siga kiradigan o'zbek tilining nemis tilidai farq qiladigan morfologik xususiyatlaridan biri hisoblanadi. O'zbek tilida o'zak oldidan ishlatiladigan bir necha morfemalarni — prefikslarni uchratish mumkin. Lekin ular o'zbek tiliga tojik, fors tillaridan kirib kelgan so'zlardagina uchraydi: cep-, be-, ba-, no- va bo'sh qalar: *serhosil* , *begal* , *badavlat*, *noumid* kabi.

**So'z negizi** (Stamm). So'zning morfologik belgi qo'shilishi uchun asos bo'ladigan qismi n y e g i z hisoblanadi. Negiz o'zakka teng bo'lishi ham mumkin: *der Tisch*, *die Stadt*, *das Glas*; *kitob*, *uixap*, *qalam*. Bunday negiz tub yoki s o d d a n e g i z deyiladi. So'z yasovchi affikslar qo'shilishidan hosil bo'lgan negiz ya s a m a n y e g i z hisoblanadi: *der Arbeiter*, *die Lehrerin*, *das Häuschen*; *ishchi*, *uycha* kabi.

**Fleksiya** (Flexion) (q o' Sh i m Ch a). Nemis tilida qo'shimcha xuddi so'z formalarini yasaydigan suffikslar kabi so'zning grammatik formalarini hosil qiladi. Qo'shimchalarning so'z formalarini yasovchi suffikslardan farqi shundaki, qo'shimchalar so'z birikmasi yoki gapdagi so'zlarning bog'lanishini ifoda etadi:

- 1) Ot, sifat, turlanadigan son, olmosh va artikllarning kelishiklar bo'yicha o'zgarishi: *warm-er Tag*, *warm-en Tag-es*, *warm-er Tag(e)*, *warm-en Tag*.
- 2) Sifat, tartib son, moslashadigan olmosh, artikllarning rod va son bo'yicha o'zgarishi: *dies- er klein- e Garten*, *dies- es klein- - e Haus*, *dies- e klein- e Stadt*, *dies- e klein- en Häuser*, *ein klein-er Tisch*, *ein klein-es Buch*, *ein-e klein- e Karte*, *klein-e Tisch.-e* kabi.

- 1) Fe'llarning shaxs va son bo'yicha o'zgarish sh *ich geh-e*, *du gehst*, *er geh-t*, *wir geh-en*, *ihr geh-t*, *sie geh-en* .

O'zbek tilida sifatning ot bilan aloqaga kirishuvi nemis tilidan farq qiladi. Nemis tilida sifat ot bilan birga qo'llanganda ularning har biri alohida kelishik qo'shimchalarini oladi. O'zbek tilida esa kelishik qo'shimchalari faqat otga xos bo'lib, sifat bunday alohida turlovchi qo'shimchalarni olmaydi. Qiyos- lang:

*warm-er Tag*—*issiq kun*; *warm-en Tag-es* — *issiq kunning*; *warm-em Tag(e)* — *issiq kunga*; *warm-en Tag*—*issiq kunni* kabi.

Nemis tilida otning olmoSh (ko'rsatish olmoShi) bilan turlanishi yanada murakkablashadi. Bunda olmoSh va otning har biri alohida kelishik qo'ShimChalarini oladi. Bundan taShqari, nemis tilida otlar uCh rodga ega bo'lganligi uChun, boSh kelishikda ot bilan qo'llangan olmoSh turli rod qo'ShimChalariga ega bo'ladi. Uzbek tilida esa otlar rod kategoriyasiga ega emas. Qiyoslang:

*dies-er Garten* — *b u bog' dies-e Stadt* — *bu Shahar dies-es Haus* — *b u uy*

Nemis tilida ot, sifat va olmoSh birga turlanganda ularning har biri tegishli kelishik qo'ShimChalarini oladi. O'zbek tilida bu uCh so'z turkumidan faqat ot kelishik qo'ShimChasini olib, qolgan olmoSh, sifat kelishik qo'ShimChalarini olmaydi. Qiyoslang: *dies-er klein-e Garten* — *bu kichik bog'*

*dies-es klein-en Garten-s* — *bu kichik bog'ning*

*dies-em klein-en Garten* — *bu kichik boqqa*

*dies-en klein-en Garten* — *bu kichik bog'ni*

Nemis tilida ham, o'zbek tilida ham fe'llarning Shaxc va son bo'yicha o'zgarishi fe'l negiziga Shaxs-son affikslarini qo'Shish yo'li bilan bo'ladi. Albatta, har bir tilning turli zamon formalaridagi Shaxc affikslari turlicha bo'ladi. Nemis tilidagi prezens (Präsens) zamon formasi o'zbes tilidagi hozirgi-kelasi zamon formasiga to'g'ri keladi. Qiyoslang:

*ich sChreib-t* — *men yoza-man*

*du sChreibst* — *sen yoza-san*

*er sChreib-t* — *u yoza-di*

*wir sChreib-zn* — *biz yoza-miz va b.*

Nemis tilida qo'ShimChalar yordamida so'z formalarining o'zgarishi protsessida ba'zi o'rinlarda qo'ShimChalarning bo'lmaslik holatlari ham uChraydi. So'z oxirida mavjud bo'lmagan qo'ShimCha н о л ь qo'ShimCha deb yuritiladi va uning ma'nosi saqlanadi.

Hozirgi zamon va aniq o'tgan zamonda kuchli fe'ning birlik uCh Shaxs (Person) bo'yicha tuslanishini qiyoslang:

Pr e z e n t : I. P. ich sChreib-e (Präsens) II. P. du sChreib-st  
III. P. er sChreib-t

P r e t e r i t : I. P. ich sChrieb (Präterit) II. P. du sChrieb-st  
III. P. er sChrieb kabi.

Bu holatni otlarning turlanishida ham ko'rish mumkin: *der Tisch, des Tisch-es, dem Tisch(e), den Tisch* kabi.

Nemis tilida turli formalarni yasovchi *omonim s u f f i k s l a r* va *q o ' S h i m C h a l a r* bor. Masalan, *-er* morfemasining qo'llanishini olib ko'raylik:

- 1) *Lehr-er*, *SChreib-er*, *Fahr-er* so'zlarida *-er* so'z yasovchi morfema hisoblanadi;
- 2) *höh-er*, *lieb-er*, *ruhig-er* so'zlarida *-er* qo'ShimCha morfema sanalib, sifatning qiyosiy darajasini yasaydi;
- 3) *Kind-er*, *Ei-er*, *Bild-er* so'zlarida *-er* otlarning ko'plik formasini yasaSh uChun qo'llanadigan qo'ShimCha — morfema sanaladi;
- 4) *dies-eg*, *jen-er*, *gut-er* so'zlarida *-er* mujskoy rod otlarining birlik boSh kelishigining, jenskiy roddagi otlarning birlik qaratqich va jo'nalish kelishiklarining, uCh rodning ko'plikdagi qaratqich kelishiklarining ma'nolarini ifoda etadi;
- 5) ba'zan so'z yasovchi affiks bir turkumning o'ziga xos bo'lgan so'zlar yasaShi mumkin.

*Hamm-er*, *Hung-er* so'zlarida *-er* morfema emas. Bu so'zlar, asosan, yolg'iz o'zakdan iborat bo'lgani uChun o'zak *-er* morfemasisiz biror ma'noni anglatmaydi<sup>3</sup>.

- 6) *er* III Shaxc birlik va boSh kelishikdagi mujskoy rodga oid kishilik olmoShidir. U mustaqil morfema bo'lib ham kela oladi.

### **3 Nemis tilida so'zning semantik xususiyatlari**

<sup>3</sup> Kleine Enzyklopadie. Die deutsChe SpraChe. Band I. Leipzig 1969, S. 428.

Soʻz semantik jihatdan predmet, hodisa, harakat, ish, belgi va Shu kabilarning nomini bildiradigan, grammatik jihatdan Shakllashgan, bir tilda soʻzlovchi kishilar jamoasi uchun bir xilda tushuniladigan nutq (birligidir. Soʻzning semantikasi, narsalar, hodisalar, harakatlar bilan bevosita bogʻlanmay, balki mehnat jarayonida, hayotiy tajribalar napgijasida borliqning kishi ongida aks etishi orqali vujudga keladi. Kishi borliqni bilishi, uni oʻz ongida aks ettirishi natijasida predmetlar, hodisalar, harakatlar haqida maʼlum tushunchaga ega boʻladi. Shu bilan birga, bu tushunchalar har bir tilda nutq tovuShlarining muayyan birikmalari orkali reallashadi, predmet, hodisa, harakat kabilarning nomini bildiruvchi tovuSh va tovuShlar birikmasi soʻz holiga keladi. Soʻz predmet, hodisa, harakat kabilari bilan oʻzaro tabiiy holda bogʻlangan emas. Agar shunday bogʻlanish sodir boʻlganda edi, unda bir predmetning turli tillardagi nomlari bir xil boʻlar edi. Vaholanki, amalda bir predmet yoki hodisaning nomi turli tillarda turli tovuSh birikmalaridan yasalgan soʻzlar bilan ifodalanadi. Masalan, bir qushning nomi oʻzbek tilida *Chumchuq*, hindchada - gauraya, xitoychada myatsyao, ruscha *vorobey*, frantsuzcha monean (muano), inglizcha sparrow (sparrou), nemischa Spatz (Shpats) deb ataladi.

### **Soʻzning leksik-semantik xususiyatlari**

Soʻzning leksik-semantik xususiyatlari uning leksik, grammatik va semantik jihatlarini oʻzida mujassamlashtiradi. Chunki soʻzlar tilning lugʻat sostavini shundaygina tashkil etmay, umuman, tilning sistema va strukturasiidagi barcha bogʻlanishlarni taqozo etadi.

Koʻpincha soʻzning maʼnosi haqida gapirganda, uning predmet va tushuncha bilan aloqasi va tilda qanday ifodalanishi koʻzda tutiladi. Biroq qadimiy tilshunoslikda soʻz va nom oʻrtasida moslik bor deb qarash ham mavjud edi. Baʼzi gʻarb tilshunoslari esa soʻzning faqat aytilish tomoniga eʼtibor bergan edilar. Soʻzning aytilishi uning moddiy tomoni, yaʼni tovuShlarning birikuvi yoki bir tovuSh ekanligini koʻrsatadi. Tinglovchi va soʻzlovchi uchun soʻzning aytilishi obʼektiv haqiqatdir. Biroq soʻzning faqat aytilishi uni izohlay olmaydi. Soʻzning aytilishi bilan predmet yoki

hodisa o'rtasidagi bog'lanish uning ma'nosini yuzaga Chiqaradi. Bu aloqa, odatda, uChburChak Shaklida ko'rsatiladi.

Mazkur qaraSh albatta barCha so'zlar Shunday tartibda tuzilgan, degan noto'g'ri xulosaga olib kelishi mumkin. CHunki so'zning ma'nosi bizga boShqa bir predmet yoki hodisani eslatganidek, o'z navbatida, biror narsa ham boShqa narsani kishi ko'z oldiga kelti-rishi mumkin. CHunki so'zning ma'nosi uChun uning aytilishi bilan so'zdan taShqarida bo'lgan tuShunCha o'rtasidagi bog'lanish zarur deb hisoblansa, bir xil tuShunChalar tilda bir xil tuzilgan degan xulosaga kelish mumkin. Aslida esa so'zlar turli struktura tuzilishiga egadir. Shu tufayli so'zning predmet va tuShunCha bilan bog'lanishini Shartli ravishda qaramoq zarur. CHunki barCha so'zlar ham predmet, hodisa yoki belgining nomini atamaydi, ya'ni hamma so'zlar nominativ funktsiyaga ega emas. So'zlar ichida otlar (predmet), fe'llar (harakat), sifatlar (predmet belgisi) va ravishlar (harakat belgisi) nominativ funktsiya bajaradi. OlmoShlar maxsus nominativ funktsiyani nutq situatsiyasida bajarishi mumkin. Masalan, *u* yoki *ular* olmoShlari istagan predmet yoki hrdisani ataShi mumkin. Lekin bu olmoShlarning nominativ funktsiyasi nutq situatsiyasida oydinlaShadi. Sonlar ham o'zicha nominativ funktsiya bajarmaydi, lekin ular otlashsa, bu funktsiyaga ega bo'ladi: *UChinChisini Chaqiring* kabi.

YordamChi so'zlar ham nominativ funktsiya bajarmaydi. Bir mustakil so'zning nominativ funktsiyasi doimo faqat bir predmet yoki tuShunCha, harakat yoki belgiga qaratilavermaydi. Ba'zan bir so'z bir qanCha narsalarga tegishli bo'lishi mumkin. Ba'zan esa aksinCha, bir narsa bir qanCha nomlar bilan atalishi mumkin. Masalan, *gul* so'zi gulning barCha turlarini, *daraxt* so'zi ham daraxtning barCha turlarini ifodalaydi. Biroq Braziliyadagi aborogenlar tilida to'tiquShning har bir turi o'z nomyga ega. O'zbek va rus tillarida to'tiquShning har bir turi alohida nomga ega emas. O'zbek tilidagi «bo'Sh vaqt» tuShunChasi ingliz tilida spare time, free time, leisure so'zlari bilan ifoda etiladi. Ingliz tilida bu so'zlar ma'nosiga ko'ra

turlicha ishlatiladi. Spare time keChqurun ishdan keyin yoki haftaning dam olish kunlaridagi bo'Sh vaqtni ifodalaydi. Free time kun davomida ish yoki o'qishdan xolis bo'lgan bo'Sh vaqtni bildiradi. Leisure so'zi dam olish vaqtini ko'rsatadi. Ingliz tilida dam olish, tanaffus qilish, madaniy xordiq Chiqarish ma'nolarini ifodalagan yana bir qancha so'zlar, jumladan, recreation, rest, relaxation, amusement, entertainment kabilar mavjud. Bu so'zlar ham qo'llanishiga ko'ra farq qiladi.

So'zlarning nutq jarayonida yoki tekstda ishlatilish o'rni kontekst deb ataladi. So'zlarning ma'nosi kontekst yordamida oydinlashadi. Tildagi barcha birliklar (fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi, gap) umumlashtiruvchilik xarakteriga ega. So'zning abstrakt tabiati uning bir qancha predmet, tushuncha, hodisa va belgilarga tegishli ekanligi bilan izohlanadi. Biroq so'z ma'lum nutq situatsiyasida yoki kontekstda o'zining konkret formasida namoyon bo'ladi. Har bir so'zning ma'nosi uning material — tovush jihatdan shakllanib, ma'lum ma'noni ifodalashga qaratilgan odam ongidagi harakat rivojlanishining natijasidir.

Demak, so'zning leksik ma'nosi bilan grammatik ma'nosini farqlamok zarur. Ayrim olingan so'zga tegishli bo'lib, boshqa so'zlardan farqlay oluvchi ma'no shu so'zning **leksik ma'nosi** deb yuritiladi. So'zning leksik ma'nosi birinchi navbatda o'sha so'z o'zining ma'nosi bilan bog'liq bo'ladi va har qanday affiks qo'shilganda ham saqlanib qoladi. Masalan, *yaxshi*, *yaxshilik*, *yaxshilikcha* kabi so'z formalarining barchasi «yaxshi» ma'nosini ifoda etgan. Bu o'rinda *yaxshi* so'zining leksik ma'nosi uni boshqa so'zlardan (masalan, *yomon* so'zidan) farqlashga xizmat qiladi.

Barcha so'zlar o'z aytilishi, ya'ni tovushlar birikmasi yoki bir tovushdan iborat bo'lgan material tomoniga ega. So'zning material tomoni u ifoda etgan predmetning belgisi deb ataladi. Til esa shunday belgilarning alohida sistemasi deb qaraladi. Tildagi belgilar hayotdagi boshqa belgilardan, jumladan, ko'cha qatnoviga oid belgilar va signallardan tubdan farq qiladi. Chunki bu belgilar shartli qabul qilingan bo'lib, tez o'zgarishi mumkin. So'zning aytilishi esa shartli emas, u

odamlarning xo- hishi bilan paydo bo'lmagan. So'zning talaffuzidagi o'zgarishlar tilning tarixiy rivojlanish qonuniyatlari va odamlar nutqida ishlatilish xususiyatlari asosida ro'y beradi.

So'z ma'nosining predmetga aloqasi **denotativ** aloqa, **so'z atayotgan** predmet denotat yoki referent deb ataladi (latincha denotatum — **ko'rsatuvchi**). So'z ma'nosining tushunchaga munosabati signifikativ aloqa (latincha signifikatum— «belgi»), tuShunChaning o'zi **signifikat** deb yuritiladi. Bir so'z ma'nosining boShqa so'zning ma'nosiga munosabati struktural aloqa deyiladi. Bunday aloqa natijasida turli so'zlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'xShaSh va farqli tomonlari aniqlanadi va so'zlar har xil guruh va tiplarga ajratiladi.

So'z ma'nosiga doir yuqoridagi ma'lumotlarni sxemalar yordamida quyidagicha ko'rsatish mumkin.<sup>4</sup>

**So'z ma'nosining asosiy funktsiyalari.** Ma'no<sub>1</sub> — predmet<sub>1</sub> [ (yoki ma'no<sub>2</sub>— predmet<sub>2</sub>)—denotativ funktsiya; ma'no<sub>1</sub> — tuShunCha<sub>1</sub> (yoki ma'no<sub>2</sub>— tuShunCha<sub>2</sub>)—signifikativ funktsiya; ma'no<sub>1</sub>—ma'no<sub>2</sub> (yoki ma'no<sub>2</sub>—ma'no<sub>1</sub>)— struktural funktsiya.

Tilning mazmun planida so'zning asosiy ma'nosi semema termini bilan ataladi, ifoda planida esa leksema deb yuritiladi. Tilning ifoda va mazmun planlari bir-biri bilan uzviy bog'liq holatda qaraladi.

So'zning ma'nosi uning bir qanCha konkret ma'nolarining yig'indisidan, ya'ni sxemalardan taShkil topadi. Masalan, *bormoq*, *yurmoq*, *Chopmoq*, *kelmoq*, *qadam* turli leksemalar bo'lib, «harakat qilmoq»ni ko'rsatuvchi sememaga birlaShadi. Ammo bu so'zlarning har biri alohida semasiga ega. Semalar bir so'zning ma'nosini boShqa so'zlardan farqlaSh uChun xizmat qiladi. Semalar predmet va hodisalarga tegishli bo'lgan taShqi va ichki belgilar yordamida va ular nutq situatsiyasida oydinlaShadi. Ba'zan bir so'z ma'no jihatidan turlicha variantlarga ega bo'lishi mumkin. Bunda so'zning o'zagi, uning morfemik sostavi ham varintlaShadi va bu leksik-semantik hamda stilistik farqlanishga olib keladi. Masalan, *kurs* so'zi (I—V *kurs studentlari*) *nazariyya amaliy kurs (dars)*

---

<sup>4</sup> Б. Н. Головин. Введение в языкознание. Изд. «Высшая школа», М., 1977, стр. 72.

ma'nolarida variantlashadi va ular leksemalar deb yuritiladi. *Sinf* so'zi ham *ishChi* sinfi va *I—X sinf o'quvChilari* kabi variantga ega. Bunday so'z variantlarining ma'nolari nutq situatsiyasi bilan bog'liq bo'ladi. So'zning leksik ma'nosi doirasiga uning konnotativ (latinchason — «birga», notatio — «ko'rsatish») ya'ni qo'shimcha ma'nosi ham kiradi va u so'z ekspressiv bo'yoq va stilistik o'ttenka beruvchi a'noni anglatadi. Masalan, *Chehrasi o'chiq. BaSharasini ko'rmay*. Bu gaplarda *Chehra* va *baShara* o'zlarinig leksik ma'nosi (yuz, bet) dan taShqari konnotativ ma'no (ijobiy va salbiy munosabat) ham ifoda qilyapti. *Kalla* va *tabassum* so'zlari ham mana shunday xususiyatga ega.

So'zlarning konnotativ ma'nolari tilshunoslikning stilistika bo'limida, aniqrog'i, leksik stilistikada o'rganiladi.

### **Motivatsiya masalasi**

Buyuk tilshunos Vilgelm fon Gumboldt o'z davrida: «... so'zdagi tovuShlar bilan ma'nolarning payvandlashuvi qay tarzda va darajada ro'yobga chiqishi biz uchun hozirga qadar jumboqligicha qolmoqda», - deb ta'kidlab o'tgan edi. Albatta, so'zning tovuSh tanasi bilan uning ma'nosi orasida qanday munosabat borligi motivatsiya muammosi bilan bog'liq.

1. Ko'plab o'zak so'zlarda motivatsiya munosabatlari sezilmaydi. Ma'lum tilda gapiruvchilar uchun so'zning shakl va ma'nosi o'rtasidagi munosabat tabiatan berilgan hol deb qabul qilinadi. M.: Baum, Gras, Art u.a.

2. Affikslar hamda so'zlar qo'shilishi asosida yasalgan so'zlarda motivatsiya mavjud. M.: o'zak va suffiks asosida yasalgan *Lehrer* so'zi *Lehr-* o'zagi hamda *-er* suffiksi yordamida yasalgan va ma'no motivatsiyasiga ega, ya'ni ma'lum kasb egasi haqida ma'lumot berilmoqda.

3. *Wandzeitung* qo'shma so'zi *Wand* hamda *Zeitung* so'zlari asosida yasalgan va motivatsiyaga ega.

Motivatsiyaga ega bo'lgan va motivatsiyaga ega bo'lmagan so'zlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Motivatsiyaga ega bo'lmagan so'zlar

Motivatsiyaga ega bo'lgan so'zlar

(Wörter mit nichtmotivierter Bedeutung) (Wörter mit motivierter Bedeutung)

sChreiben	das SChreiben
kaufen	der Käufer, der Einkauf
gehen	der Gang
der Tisch	der Tischler
leicht	erleichtern

4. So'z ma'nosining semantik motivatsiyasi to'liq berilishi juda muShkul masala. CHunki, denotatning asosiy yoki ikkinchi darajali xususiyatlari ham ifodalanishi mumkin. Masalan, itning «vovullaSh» xususiyati har xil tillarda har xil tovushlar motivatsiyasi orqali berilishi mumkin:

olmon tilida:	wau-wau
rus tilida:	tyaf-tyaf, gav-gav
ingliz tilida:	bow-bow
italyan tilida:	bu-bu
frantsuz tilida:	oua-oua (wa-wa)
o'zbek tilida:	vov-vov, xov-xov

5. So'zning morfologik motivatsiyasi uning morfologik assotsiatsiyasi taxmini, faraz asosida yuzaga keladi.

Masalan: Bruder – brüderlich

Plan - Arbeitsplan, Stundenplan

backen- Bäcker, Bäckerei

6. Semantik motivatsiya qo'shma idiomalarda qorong'ulaShgan bo'ladi:

Masalan: die Schlafmütze – «uyquchi odam»

der Pantoffelherr – «xotining gapidan chiqmaydigan odam»

Assotsiativlik, ya'ni belgi Shakli hamda ma'nosining har xilligi va Shu bilan birga uzviy bog'liqligi, motivatsiya masalalari Teo SHippan tomonidan alohida ta'riflanadi. Uning ta'kidlaShicha belgilar quyidagi motivatsiyaga ega:

1. Fonetik-fonemik motivatsiya (phonetisCh-phonematisChe Motivation). M.: quacken, sChnattern, flimmern, sChimmern, flattern
2. Morfemik motivatsiya (morphemisChe Motivation). M.: Liege, TürsChloß, Tageslicht, himmelblau, blutrot, blutjung, HandtuCh, Fensterfarbe, HausbesuCh
3. Semantik yoki figurativ motivatsiya (semantisChe oder figurative Motivation). M.: Menü, Adresse, MauerspeCht, Wendehals ...

Psixologik-idealistik nuqtai nazardan kelib Chiqib V. fon Gumbol̂dt har bir so'zning «ichki formasi» (innere Form des Wortes) borligini ta'kidlaydi hamda bu forma har bir xalqning «milliy ruhi» bilan bog'liqligiga urg'u beradi. L. SHEvelyovaning yozishicha: "W. Humboldt glaubte, daß Bewußtsein des Subjekts sChafft den Gegenstand des Gedankens und sonderte das Grundmerkmal des gesChaffenen Gegenstandes aus. Eine der EigensChaften des Gedankens ist die innere Form des Wortes".<sup>5</sup>

So'zning ichki Shaklini aniqlaShda, albatta, uning motivatsiyasi hamda etimologik ma'nosiga e'tibor berilishi lozim. CHunki ba'zi so'zlarda «ichki forma» yaqqol sezilib tursa (lebendige innere Form), ba'zilarida sezilmaydi, ular «so'ngan (qorong'u, aniqlanmaydigan) ichki forma», "tote innere Form" deyiladi.

Ma'no motivatsiyasi yaqqol sezilib turgan so'zlarga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin: vierzehn, Geburtstag, Flieger, landen; qorong'i, aniqlanmaydigan ma'no motivatsiyasiga ega bo'lgan so'zlarga esa quyidagilar misol bo'la oladi: TisCh (lat.), discuss, Stufe, Ohr, Wald, Berg, Geburt (ahd.).

«Ichki forma» «so'ngan (qorong'u, aniqlanmaydigan)» so'zlar I.G. Ol̂Shanskiy ning yozishicha uChta faktorga borib taqaladi:

---

<sup>5</sup> L.W.SCheweljowa. Lexikologie der deutsChen GegenwartsspraChe. Vorlesungen. M., 2004, S.47

Ularni aynan berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Die Verdunkelung des Etymons ist auf folgende drei Faktoren zurückzuführen:

1) Verschwinden von Wörtern aus dem selbständigen Sprachgebrauch;

2) verschiedene fonetische Veränderungen im lautlichen Bestand des Wortes,

die zur Veränderung seiner äußeren Form führen;

3) der Bedeutungswandel.

In der Lexikologie werden drei Arten von Motivation abgegrenzt (vgl. Schippan, 1975, 56—61): 1) **fonetisch-fonologische** (natürliche) Motivation. Dazu gehören lautmalende, schallnachahmende Wörter (die Onomatopoeica): *der Kuckuck* [das Töff töff] (ugs. scherzh.) — kleines Auto; *bellen, gackern, kichern; wau wau* (Nachahmung des Hundegebells); *kikeriki* (Nachahmung des Hahnschreis); 2) **morphematische** (morphologische) Motivation, bei der sich die Gesamtbedeutung aus den Morphembedeutungen ergibt: *die Straßenbahnhaltestelle-, der Schreibtisch; die Erziehung*. Es gibt auch „idiomatische Wörter“: *der Kindergarten* (ist kein Garten), *das Handtuch* (kein Tuch nur für die Hände); 3) **semantische** Motivation, die bei der Mehrdeutigkeit, bei der Entwicklung einer Neubedeutung vorkommt: *die Wende* im Sinne „Wiedervereinigung Deutschlands“, *die Adresse* (in der Computertechnik — Zahl oder Symbol zur Kennzeichnung einer Speicherzelle).

Wenn die historische adäquate innere Wortform nicht mehr eindeutig zu erkennen ist, entsteht auf Grund begrifflicher oder lautlicher Angleichung an durchsichtige Wörter und Wortelemente eine neue Etymologie, die *Volks-etymologie*, oder *Fehl-etymologie*. So wird z. B. im Substantiv „der Meineid“ (*ljeklyatva, Lojnaya prisjaga, klyatvoprestuplenie*) das erste Element irrtümlicherweise mit dem Possessivpronomen „mein“ assoziiert, was aber mit ihm nichts gemein hat, da es sich aus dem ahd. Adjektiv „mein“ in der Bedeutung „falsch“ entwickelt hat.

So'zning asosan quyidagi ma'no aspektlari farqlanadi:

1. Soʻzning denotativ maʼno aspekti, yaʼni soʻzning asosiy maʼno toʻplami (der Umfang der Bedeutung in der Grundbedeutung). M.: der Kopf - boʻsh

2. Soʻz maʼnosining signifikativ aspekti, yaʼni soʻzning mazmuni (der Inhalt der Bedeutung). M.: der Kopf = “der Weise” – «kalla», «dono», «aqlli».

3. Soʻzning konnotativ aspekti, yaʼni soʻzning qoʻshimcha maʼnolari, maʼnoning oʻziga xos emotsional-ekspressiv xususiyatlari (die zusätzliche Bedeutung, Bedeutungsschattierungen, emotional-expressive Bedeutung). M.: Gesicht – Antlitz – Visage – Fratze - yuz – bet – aft – baʼshara – Shixt – äoʻxt – turq va hk.

Soʻzning yuqoridagi maʼno aspektlari tarixiy hodisa boʻlib, jamiyat tomonidan tan olingan, til strukturasi mavjud hamda lugʻatlarda muhrlangan.

Soʻzlarning tarixiy maʼno xususiyatlarini oʻrganishda «xalq etimologiyasi» (Volksetymologie) tuʻshunchasiga alohida eʼtibor qaratish lozim boʻladi, chunki baʼzi soʻzlar tarixiy maʼnosidan uzilgan boʻlib, ularning shakliy oʻxshashligi baʼzan xato hukm chiqarishga olib keladi. M.: der Friedhof – qadimda himoʻb qilingan joy maʼnosiga ega boʻlgan, hozirgi kunda “Fried” – tinchlik hamda “Hof” – die “Stätte” soʻzlari bilan asoslanadi, yaʼni “der Ruheplatz” – tinch joy maʼnosiga ega.

Lebkuchen – kovriga soʻzi maʼnosi haqida L.Shevelyova shunday izoh beradi: der erste Teil des Wortes “Lebkuchen” ist nicht mit “Leben”, sondern mit der alten Bezeichnung für “geformtes Brot-Leib (kovriga) verwandt”.<sup>6</sup>

Soʻz – intuitiv berilgan, tayyor holda kundalik muloqotda qoʻllaniladigan lingvistik birlik tuʻshunchasidir.

Soʻz tuʻshunchaning til orqali ifoda etilishi demakdir. Tuʻshuncha soʻzda maʼno koʻrinishida zohir boʻladi, maʼno esa soʻzning mazmun asosidir (Inhalt)

#### **IV. XULOSA**

---

<sup>6</sup> L.W.Scheweljowa. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. Vorlesungen. M., 2004, S.47

Har bir tildagi soʻzlar oʻziga xos fonetik, morfologik hamda semantik xususiyatlarga ega boʻlgani kabi, olmon tili leksik sistemasining ham oʻziga xos tomonlari mavjud.

I. Fonetik nuqtai nazardan olmon tilida soʻzlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Olmon tilida soʻzlar markazlashgan, morfologik bogʻlangan urgʻuga ega:

a) boʻsh urgʻu – die Hauptbetonung

b) ikkinchi darajali urgʻu – die Nebenbetonung

v) kuchli urgʻu – die starke Betonung

g) kuchsiz urgʻu – die schwache Betonung

Ushbu urgʻular soʻzning fonetik yaxlitligini ifodalaydi.

2. Undoshlar soʻzning oxirida jarangsiz (stimmlos) talaffuz etiladi.

3. Unlilarning soʻz boshida kuchli talaffuz qilinadi (der feste Einsatz, “der Knacklaut”)

4. Olmon tilida baʼzi soʻzlar borki, ularda urgʻu negizga bogʻlangan emas, balki soʻzlarga ajraluvchi va ajralmaydigan prefikslar, baʼzi suffikslar qoʻshilishi bilan urgʻuning oʻrni oʻzgaradi.

Olmon tili leksik hamda grammatik morfemalar sistemasidan tashkil topadi. Ular bir-biri bilan uzviy aloqadordir. Oʻzak morfema hamda soʻz yasovchi morfemalar (das Wurzelmorphem und das Derivationsmorphem) soʻzning negizini tashkil qiladi.

Agar bir qancha negizlar qoʻshilsa, qoʻshma soʻzlar hosil boʻladi. M.: Unfallschadenküperbehindertenbeschäftigungstherapeut (Arzt) – Therapeut, der dem Behinderten eine leere Arbeitsstelle zu finden versucht). Nutq jarayonida grammatik va leksik morfemalar qoʻshilib ketadi.

Har bir xalqning yashab turgan joy sharoiti, tarixiy taraqqiyoti, moddiy-maʼnaviy, diniy-ruhiy dunyosi taʼsirida oʻziga xos maʼnoga ega boʻlgan soʻz va iboralar shakllanishi mumkin. Shu boisdan baʼzi bir soʻz va iboralar maʼlum xalqning urf-odatlarini ifodalovchi yoʻgʻorlik sifatida xizmat qiladi.

Har bir davrning ijtimoiy voqeligi, yaratilgan predmet va hodisalari, kaShfiyotlari, tabiatga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi o'z so'zlari mavjud. Demak, har bir tilda o'ziga xos ma'no ifodalaydigan so'zlar oz emas.

Har qanday so'zning o'ziga xos ma'no doirasiga ega ekanligini ko'proq shu so'zni bo'shqa xorijiy til so'zlari bilan qiyoslaganda bilib olish mumkin.

O'zbek tilidagi **savob** so'zining ma'no dunyosi bilan bo'shqa tillardagi uShbu so'zga ekvivalent hisoblangan so'zlar ma'nosini taqqoslasak, ular orasida qanchalik farq borligi ma'lum bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1997. 173 бет
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Тошкент: Маънавият; 2008
3. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”; 1997 йил 29-август. Олий таълим меъёрий хужжатлар тўплами. – Т.: Шарқ, 1997. 17-б.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. 1997 йил. 29-август. Олий таълим меъёрий хужжатлар тўплами. -Т.: Шарқ, 2001. - 3-б.
5. Умархўжаев М.Э. Умумий тилшунослик. Андижон 2010. 152 бет. Андижон 2010. 152 бет.
6. Умархўжаев М.Э. Олмон тили лексикологияси ва фразеологияси. Андижон 2010. 152 бет.
7. Умархўжаев М.Э., Назаров Қ.Н. DeutsCh – russisCh – usbekisChes phraseologisChes WörterbuCh. Тошкент, 1994. 236 бет.
8. Умархўжаев М.Э. Инглизча – олмонча – ўзбекча тематик тасвирий луғат. Андижон 2012. 323 бет
9. Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. Т.: Фан, 2007

10. A. Nurmonov. Hozirgi o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari kursi bo'yicha ma'ruzalar matni. Andijon, 2007.
11. Андижоннома, 15 декбр 2012 йил
12. У. Турсунов, А. Мухоторов, Ш. Рахматуллаев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., Ўзбекистон, 1992. 400 бет
13. Харрис З. Метод в структурной лингвистике. М., 1951
14. Г. Глисон. Введение в дескриптивную лингвистику. М., 1959.
15. Чикобава А.С. Проблемы языка как предмета языкознания. М., 1959
16. Н. Х о м с к и й. Синтаксические структуры; Совместная встречаемость и трансформация в языковой структуре. «Новое в лингвистике». Вып. II. М., 1962.
17. Основные направления структурализма. М., 1964.
18. Кодухов В.И. Методология науки и методы лингвистического исследования. С-П.,1967.
19. Кодухов В.И. Методология науки и методы лингвистического исследования. С-П.,1967.
20. Л. Блумфильд. Язык (перевод с англ.). М., «Прогресс», 1968.
21. Общее языкознание. Отв. редак. акад. АН СССР Б.А. Серебренников, М. 1970.
22. С. Усмонов. Тилшуносликка кириш. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1972.
23. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. Тошкетнт, “Ўқитувчи”, 1973.
24. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. М., «Наука», 1973.
25. Л. Н. З а с о р и н а. Введение в структурную лингвистику. М., «Высшая школа», 1974.
26. Ю.С. Степанов. Основы общего языкознания. М., 1975.
27. Ю.С. С т е п а н о в. Принципы и методы современной лингвистики. М., 1975.
28. Н.А. Баскаков Умумий тилшунослик. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1979.

29. А. Содиқов в.б. Тилшуносликка кириш. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1981.
30. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. М.: Прогресс, 1984
31. В.И. Кодухов. Введение в языкознание. Москва, 1987.
32. О. Азизов. Тилшуносликка кириш. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1996.
33. И. Йўлдошев, Ў. Шарипова. Тилшунослик асослари. Тошкент, “Иқтисод-молия, 2007.
34. Б. Менглиев, Г. Тожиева. Тилшуносликка кириш. Ўзбек филологияси бакалаври учун маърузалар матни. Қарши, 2007.
35. Бердиёров Х., Хўжаев Т., Йулдошев Б. Умумий тилшунослик. Т., 1990.
36. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. М., 1973.
37. Рождественский Ю.В. Лекции по общему языкознанию.
38. [www.google.de](http://www.google.de).
39. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).

## **Taqrizi**

Hozirgi paytda mamlakatimizda chet tillarini o'rganishga va ularni o'qitishga katta e'tibor berilmoqda, chunki bugungi kunda jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rniga ega bo'lishga intilayotgan mamlakatimiz fuqarolarining chet tillarni yuqori saviyada bilishi muhim ahamiyatga ega. Demak chet tillarini o'rganish, o'rganganda ham jahon andozalariga mos ravishda o'rganish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda yo'shlarimiz uchun ilm olishga intilish muhim vazifaga aylandi. ADU horijiy tillar fakulteti “Nemis tili va adabiyoti kafedrası”ga qarashli 303-guruh talabasi No'monova Gulnozahonning “Nemis tilida tovushlarning nutq jarayonida o'zgarishi.” nomli kurs ishida tovushlarga ta'rif berish orqali nutq jarayonida o'zgarishi haqida atroflicha yoritib berish asosiy maqsad qilib belgilangan va ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar amalga oshiriladi.

### **Nemis tilida tovushlarning nutq jarayonida o'zgarishi.**

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi hamda, mavzuning nazariy ahamiyati haqida qisqacha izoh bergan. Asosiy qismda Mavzuni yoritish maqsadida quyidagi rejaga asoslangan

1. Nemis tilida so'zning fonetik xususiyatlari
2. Nemis tilida so'zning morfologik xususiyatlari
3. Nemis tilida so'zning semantik xususiyatlari
4. Motivatsiya masalasi

Ishda so'zning material strukturasi, so'z va morfemaning tuzilishi tovushlarning nutq jarayonida o'zgarishi asoslari misollar asosida yoritilgan va o'zbek hamda nemis tillarida o'hashash va farqli jihatlari, ularning o'ziga hos xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan. Ish yakunida tegishli hulosalar chiqarilgan, mavzu ilmiy jihatdan yoritib berilgan. Ishni yahshi deb baholayman.

**Ilmiy rahbar:**

**N. A. Karimova**